INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINI TAKOMILLASHTIRISH

Vaxobov Ulug‘bek Bahodir o‘g‘li
JDPU, doktarant

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotda J.Dyuining «tajribaga asoslangan ta’lim» nazariyasi, H.Gardnerning intellektlar nazariyasi va T.V.Musiyenkoning gamifikatsiyaga oid ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Maqolada case-study, SWOT, FSMU, rolli o‘yinlar, Kahoot! va Quizizz kabi innovatsion metodlar va zamonaviy raqamli platformalarning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga tatbiqi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar an’anaviy metodlarga nisbatan yoshlarning qadriyatlar tizimini shakllantirish, mustaqil axloqiy tafakkurini rivojlantirish va mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan ichki immunitetini mustahkamlashda ancha yuqori samara beradi. Maqola oxirida ta’lim muassasalari va pedagog-kadrlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola pedagog-amaliyotchilar, ta’lim sohasidagi tadqiqotchilar va ilmiy-pedagogik jamoatchilik uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: innovatsion pedagogik texnologiyalar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, yoshlar, gamifikatsiya, interfaol usullar, case-study, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Kahoot, Quizizz.

Globallashuv sharoitida yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish bugungi pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda yoshlarning ma’naviy-axloqiy

qiyofasini saqlab qolish va uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda an’anaviy ta’lim usullari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish yoshlarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning qadriyatlar tizimini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi [1, 12-b.]. Bir tomondan, axborot makoni kengayishi tufayli yoshlar turli mafkuralar ta’sir doirasiga tushub qolayatgan bo‘lsa . Boshqa tomondan esa an’anaviy ta’lim metodlari bu jarayonda ijobiy samara bermayapti. Aynan shu kabi holatlar innovatsion pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish va amaliy hayotga joriy qilish muhim ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, innovatsion pedagogik texnologiyalar deganda faqat raqamli qurilmalar yoki elektron resurslardan foydalanish orqali dars o‘tish jarayonini tushunmasligimiz kerak. Zero "Innovatsiya" atamasi lotincha "innovatio" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, XVII asrning o‘rtalarida ilmiy muomalaga kirgan va ma’lum bir sohaga yangi elementlarning kirib borishi hamda shu asosda o‘zgarishlar yuz berishi jarayonini anglatadi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, innovatsiya, bir tomondan, yangilikni amalga oshirish jarayoni sifatida emas, balki uni muayyan ijtimoiy amaliyotga tatbiq etish faoliyati sifatida talqin qilinadi. Innovatsion faoliyat o‘zining to‘liq rivojlanishida o‘zaro bog‘liq ish turlarini o‘z ichiga oladi va ularning uyg‘unligi real innovatsiyalarning yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Pedagogika sohasida "texnologiya" atamasi yunoncha "texnos" – san’at, mahorat va "logos" – fan so‘zlarining qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan bo‘lib, innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiyaning shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashuv sifatida ta’riflanadi [2, 23-b.]. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik hamda sifat o‘zgarishlarini olib kirish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion va axborot-pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan ilmiy qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalar tayyor bilimlarni passiv tarzda o‘zlashtirishga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalar ularni bilimni mustaqil izlab topishga, tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga yo‘naltiradi. Xususan, interaktiv metodlarning pedagogik ahamiyati shundaki, ular o‘quvchi-talabada faqat bilish jarayonini emas, balki axloqiy munosabat va qadriyatlar tizimini ham bir vaqtning o‘zida shakllantiradi. Jumladan, guruhli muhokama, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi usullar yoshlarda empatiya, hamkorlik madaniyati va mas’uliyat tuyg‘usini shakllanishga xizmat qiladi. Bu esa innovatsion texnologiyalarni oddiy o‘qitish vositasidan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning to‘laqonli pedagogik mexanizmiga aylantiradi.

Jumladan ma’naviy-axloqiy tarbiya shakillanishida J.Dyuining «tajribaga asoslangan ta’lim» nazariyasi juda muhim hisoblanadi. Dyui ta’limotiga ko‘ra, ma’naviy-axloqiy tarbiya nazariy emas, balki bevosita hayotiy tajriba va amaliy faoliyat bilan bog‘liq holda shakllanadi deydi [3, 56-b.]. Boshqacha aytganda, yosh avlod axloqiy me’yorlarni faqat eshitish yoki o‘qish orqali emas, balki muayyan vaziyatlarda qaror qabul qilib, uning hoh yaxshi, hoh yomon bo‘lsin oqibatlarini his etib, amaliyotda sinab ko‘rish orqali o‘rganishdir.

Ushbu nazariyaning innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unligi shundaki, Swot, case-study va FSMU kabi yondashuvlar mohiyatan Dyui konsepsiyasining zamonaviy pedagogik ko‘rinishlari hisoblanadi. Masalan, axloqiy dilemmaga asoslangan case-study topshirig‘ini bajarayotgan talaba real hayotiy tanlov jarayoniga o‘xshash bo‘lgan voqiylikni his qilgan holda qaror qabul qiladi.

H.Gardner ko‘p intellektlar nazariyasi esa har bir o‘quvchining individual imkoniyatlariga moslashgan innovatsion yondashuv zarurligini, shu jumladan axloqiy-ma’naviy intellektning rivoji uchun muhimligini asoslab beradi. Gardner o‘zining fundamental tadqiqotida insonning intellektual salohiyati mantiqiy-matematik yoki lingvistik jihati bilan — baholanishi mumkin emasligini ilmiy jihatdan isbotladi [4, 73-b.]. Uning nazariyasiga ko‘ra, har bir shaxs o‘ziga xos intellektlar xususiyatga ega bo‘lib, ularning rivojlanish darajasi turlicha kechadi.

Buni shakllanishida interfaol usullar, jumladan o‘zaro ma’lum guruhlarga bo‘lingan holda muhokamalar va shu bilan birga ro‘lli o‘yinlar tashkil qilish ham shaxslararo intellektni rivojlantirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Gardner nazariyasidagi ko‘ra guruh azolari o‘rasida o‘zaro muloqot qilish jarayonida, boshqalarning fikrini tinglab tushunish, o‘z pozitsiyasini dalillar asosida himoya qilish yoshlarda axloqiy tafakkurning faol shakllanishiga zamin hozirlaydi [4, 68-b.]. Bu jarayonda yoshlar "nima to‘g‘ri?" degan savolga javob izlash bilan birga "men nima uchun shunday harakat qilaman?" degan so‘rovga o‘zini anglagan holda ongli javob bera oladi.

Shaxs ichki intellektini rivojlantirish nuqtai nazaridan esa refleksiv yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o‘z-o‘zini baholash uchun shaxsiy portfolio yuritish orqali bazi yoshlarda o‘zligini anglash, o‘zning kuchli va zaif tomonlarini tanish hamda axloqiy kamchiliklarini mustaqil tushunishi va shunga ko‘ra maqsadli harakat qilishi mumin. Gardner fikricha, o‘zini chuqur anglay olgan shaxsgina boshqalarga bilan to‘g‘ri munosatatga kirisha oladi. Bugungi yoshlar uchun bu ko‘nikma ayniqsa muhim, chunki ijtimoiy tarmoqlarda "virtual shaxs" bilan haqiqiy "men" o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish o‘zini anglash jarayonisiz amalga oshishi mumkin emas.

Yangi O‘zbekiston sharoitida Gardner nazariyasining amaliy hayotga tadbiq qilinishida, milliy xususiyatlar hisobga olingan holda uyg‘unlashtirilishi zarur. O‘zbek xalqining boy ma’naviy-madaniy merosi, an’anaviy qadriyatlar tizimi asosida Gardner intellektlar nazariyasi bilan organik tarzda birlashtirilganda, yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda o‘ziga xos va samarali pedagogik model yaratish imkonini yuzaga keladi. Xususan, milliy adabiyot va tarixga asoslangan rolli o‘yinlar, o‘zbek xalq pedagogikasi an’analarini innovatsion metodlar orqali o‘tilganda yoshlarda milliy g‘urur, vatanparvarlik, axloqiy burch, va masuliyat tuyg‘ulari tabiiy tarzda shakllanadi. O‘z o‘rnida bu esa ularni har qanday mafkuraviy ta’sirlarga qarshi mustahkam ma’naviy immunitetga ega bo‘lishlari uchun zamin yaratadi.

Shu o‘rinda T.V.Musiyenkoning tadqiqotlarida gamifikatsiyaning an’anaviy o‘qitish metodlaridan tubdan farq qilishini, ya’ni u o‘quvchida ichki qiziqish uyg‘otib, bilim olishni majburiyat emas balki zavqli faoliyat turiga aylantirishi jarayoni sifatida uni ilmiy jihatdan asoslab bergan [5, 47-b.]. Bunda gamifikatsiyaning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga tatbiq etish ham juda samarali hisoblanadi. Jumladan reyting tizimi o‘yin vositasida qo‘llanilishi yoshlarda mas’uliyat shu bilan birga halollik tuyg‘usini shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Xususan, Kahoot! platformasi real vaqt rejimida guruhlar bilan ishlash imkonini taqdim qiladi. Bunda o‘qituvchi ma’naviy-axloqiy mavzularga doir savollar tuzadi, o‘quvchi-talabalar esa o‘z mobil qurilmalari orqali javob beradilar. Platforma har bir ishtirokchining natijasini ochiq shafof holda ko‘rsatadi bu esa ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti shakillanishiga asos bo‘ladi. Ahamiyatli jihati shundaki, bu formatda birovni aldash yoki boshqa o‘quvchining javobini ko‘chirish imkoni texnik jihatdan cheklangan. Shu sababli o‘quvchi ko‘proq o‘z bilimiga tayanishi lozimligini tushunib yetadi.

Bundan tashqari Quizizz platformasi bor bo‘lib. U Kahootdan farqli ravishda o‘quvchilar bilan individual ishlash imkonini taqdim qiladi. Har bir o‘quvchi topshiriqni o‘z bilimiga qarab boshqalardan ertaroq bajarishi va vaqtli yakunlashi mumkin. Bu yoshlar o‘z xatolarini mustaqil tahlil qilish, sabab-natija bog‘liqligini anglash va keyingi urinishda yaxshilroq harakat qilish uchun intiladi. Axloqiy dilemmalarga asoslangan Quizizz savollari — masalan, “Quyidagi vaziyatda qaysi qaror to‘g‘ri?” kabi savollar va topshiriqlar — yoshlarni axloqiy tafakkurining rivolanishiga va to‘g‘ri qaror qabul qilish sabab bo‘ladi.

Umumiy nuqtai nazarga ko‘ra globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish an’anaviy ta’lim metodlari doirasida to‘liq hal etib bo‘lmaydigan murakkab pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy metodlar bilim berishda ma’lum darajada samarali bo‘lsa-da, yoshlarning qadriyatlar tizimini shakllantirish va axloqiy tafakkurini rivojlantirish shu bilan birga mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan ichki immunitetini mustahkamlashda yetarli natija bermayapti. Shu sababli ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘lagan holda tatbiq etuvchi maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim. Bu jarayonning uzviy davomi

sifatida pedagog-kadrlarni malaka oshirish tizimiga Kahoot!, Quizizz kabi zamonaviy platformalardan ma’naviy-axloqiy tarbiya maqsadlarida foydalanish bo‘yicha maxsus modul yaratish va o‘zbek milliy adabiyoti, tarixi va xalq pedagogikasi an’analariga asoslangan case-study va rolli o‘yin to‘plamlari ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda ulardan ongli va maqsadli foydalanish — bu nafaqat pedagogik zarurat, balki Yangi O‘zbekistonning kelajagi bo‘lmish yosh avlod oldidagi ma’naviy burch hamdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva F. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim sifati. – Toshkent: Fan, 2020. – 184 b.
2. Azizboyev N. Yoshlar ma’naviy tarbiyasining falsafiy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 210 b.
3. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.
4. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 440 p.
5. Musiyenko T.V. Geymifikatsiya kak instrument vovlecheniya v obucheniye // Pedagogika. – 2020. – №4. – S. 45–52.